



SHAXSLAR ARO MUNOSABATLARDA MULOQOTNING AHAMIYATI

Jumamardonova Umida Murodboevna

Ilmiy rahbar:

“TIQXMMI” MTU “Professional ta’lim”

kafedraasi assistenti

umidamurodbayevna@gmail.com. 33-717-58-29

Mamajonova Nozima Husnidin qizi

“TIQXMMI” MTU Professional ta’lim(yer kadastrisi va yer tuzishi)

yo’nalishi 215- guruh talabasi

nozimamamajonova1275@mail.com 93-702-12-75

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14015858>

Annotatsiya: Maqolada muloqotning shaxslararo munosabatlardagi o’rni va ahamiyati yoritilgan. Muloqot insonning jamiyatda yashash ehtiyojini qondirish bilan birga, uni shaxs sifatida shakllantiruvchi asosiy omil sifatida ko’rsatilgan. Shaxsning muloqotdagi muvaffaqiyati uning xushmuomalalik, kamtarlik, to’g’ri so’zlilik kabi fazilatlariga bog’liq ekani ta’kidlangan. Shuningdek, muloqot jarayonida yuzaga keladigan psixologik va motivatsion to’siqlar, tinglash qobiliyatining yetishmasligi kabi omillar tahlil qilingan. Muloqot inson dunyoqarashini kengaytiradi va ijtimoiylashuvga yordam beradi, shu bois muloqot madaniyatini egallash har bir inson uchun zarurdir.

Kalit so'zlar: Muloqot, shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy psixologiya, o'zaro ta'sir, muloqot madaniyati, ijtimoiylashuv, fazilatlar, muloqot ko'nikmalari, suhbat to'siqlari, shaxsning shakllanishi.

Annotation: The article covers the role and significance of communication in interpersonal relationships. Communication is shown as the main factor that shapes a person as a person, while satisfying the need to live in society. It has been argued that a person's success in communication depends on his qualities such as politeness, humility, truthfulness. Factors such as psychological and motivational impediments to the communication process, and lack of listening skills have also been analyzed. Communication expands the human worldview and contributes to socialization, therefore, the acquisition of a culture of communication is necessary for every person.

Key words: communication, interpersonal relationships, social psychology, interaction, communication culture, socialization, qualities, communication skills, conversation barriers, personality formation.

Аннотация: В статье освещается роль и значение общения в межличностных отношениях. Коммуникация показана как ключевой фактор, формирующий человека как личность, удовлетворяя при этом его





потребность жить в обществе. Отмечено, что успех личности в общении зависит от таких ее качеств, как вежливость, скромность, правильная лексика. Также были проанализированы такие факторы, как психологические и мотивационные барьеры, возникающие в процессе общения, а также отсутствие навыков слушания. Общение расширяет кругозор человека и способствует социализации, поэтому овладение культурой общения необходимо каждому человеку.

Ключевые слова: общение, межличностные отношения, социальная психология, взаимодействие, культура общения, социализация, качества, коммуникативные навыки, разговорные барьеры, формирование личности.

Muloqot odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida yetakchi o'rinni egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojni-jamiyatda yashash va o'zini shaxs deb hisoblash bilan bog'liq ehtiyojni qondiradi. Shuning uchun ham uning har bir inson uchun ahamiyati kattadir. Muloqot odamlarning birgalikdagi faoliyatlari ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faoliyatlari mobaynida bir-birlari bilan o'zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir. Ya'ni, har bir shaxsning jamiyatda bajaradigan faoliyati (mehnat, o'qish, o'yin, ijod qilish va boshqalar) o'zaro munosabat va o'zaro ta'sirni o'z ichiga oladi. Muloqotni muvaffaqiyatli bo'lishida shaxsning shakllangan sifatleri fazilatlarining ahamiyati juda katta. Jumladan, shaxsda ijobiy fazilatlar yaxshi shakllangan bo'lsa (xushmuomalalik, kamtarlik, insonparvarlik, to'g'ri so'zlilik, vijdonlilik kabilar) muloqot jarayoni yaxshi o'tadi.

Bolalar yoshlikdan avvalo oilada, so'ngra ta'lim maskanlarida muloqotga o'rgatib boriladi. Muloqotga o'rgatishning usullaridan biri muloqot ko'nikmasini mashg'ulotlar tarzida shakllantirishdir. Muloqotning tarbiyaviy ahamiyati shuki, u insonning dunyoqarashini kengaytiradi va psixikasini rivojlantiradi. Shaxsning har tomonlama shakllanishida muloqotni ahamiyati katta. Oddiy narsalarni o'rganish uchun ham taqlid orqali o'zaro muloqotda bo'lish zarur. Jamiyat qonun qoidalariga asoslangan holda munosabatlar rivojlanadi. Induvid bilan shaxs orasida juda katta farq farq ko'rish mumkin.

Ijtimoiy psixologlar muloqot jarayonida yuzaga kelushi mumkin bo'lgan to'siqlarning quyidagilarini farqlaydilar: psixologik, vaziyatli, mazmuniy va motivatsion to'siqlardir.

Bulardan tashqari, muloqotga to'siq bo'lib, suhbatdoshlarni psixologik ma'daniyatlilik nuqsonlaridan biri, ya'ni ularning na eshitishi va na tinglashni bilmasligi, "teskari aloqaning" yo'qligi xizmat qilishi mumkin. Odamlar





o'rtasidagi suhbat ko'pincha ularda aqlning yetishmasligi tufayli emas, balki ularning xudbinligi tufayli: har biri o'zi haqida yoki o'zini qiziqtiradigan maslahatlar haqida intilishi tufayli kutilganidek amalga oshmay qolishi mumkin. Oqibatda bitta "aqilli" dialog o'rniga, ikkita behuda, hatto zararli monolog amalga oshadi. Shuning uchun ham muloqotga, suhbatlashish san'atiga o'rganish, ijtimoiy-psixologik madaniyatni egallash, o'zi, o'z kayfiyati va hissiyotlarini boshqara olish, bilim va malakalarini ishlab chiqish, o'z gapi bilan suhbatdoshini qiziqтира olish qobilyatini rivojlantirishga erishish kerak. Biroq, buning uchun birinchi navbatda har qanday muloqotning umumiy qoidasi: boshqa odamlarning, o'z suhbatdoshlarining ehtiyojlari, xohishlarini qondira oladigan odamgina hurmatga erisha olishligini yodda tutishi lozim. Har bir ziyoli inson boshqalar bilan hamkorlik qilish mahorati va san'atiga ega bo'lishi kerak. Bu vazifa odamlarni muomala va muloqot etikasiga o'rgatishni har qachongidan ham dolzarb qilib qo'yadi. To'g'ri muloqotga kirishish ijtimoiylashuv jarayonida barcha sifatlardan oldinroq shakllanadigan qobilyatlardan, u tabiiy va hayotiy narsa. Bola tili juda yaxshi chiqib ulgurmay atrofdagilar bilan aktiv muloqotga kirisha boshlaydi. Lekin masalaning paradoksal tomoni ham shundaki, yillar o'tgan sari ongli, aqilli odam har bir gapini o'ylab gapiradigan, har bir qadamini o'ylab bosadigan bo'lib qoladi, bu uning jamiyatdagi mavqeyini belgilardigan vositadir.

Xulosa qilib aytganda, muloqot shaxslararo munosabatlarning asosi bo'lib, insonlarning bir-birlari bilan o'zaro aloqalari va jamiyatda faoliyat yuritishlarida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Muvaffaqiyatli muloqot uchun insonning xushmuomalalik, to'g'ri so'zlilik va kamtarlik kabi fazilatlari muhimdir. Muloqot nafaqat axborot almashish vositasi, balki insonning dunyoqarashi va psixikasini rivojlantiradigan jarayondir. Ammo bu jarayonda turli to'siqlar, jumladan, psixologik va motivatsion omillar mavjud bo'lib, ularni yengish uchun inson muloqot madaniyati va san'atini egallashi lozim. Shunday ekan, jamiyatda muvaffaqiyatli muloqotga erishish, insonning ijtimoiylashuvi va uning shaxs sifatida shakllanishida muhim omil hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Aslanov, Ijtimoiy faoliyat va muomala psixalogiyasi metodik qo'llanma, Toshkent 2019.
2. M. Mahsudova "Muloqot psixalogiyasi" Toshkent: "Turon-iqbol" 2006
3. M. Umarov, Psixalogiya, Toshkent: "Voriz" 2012
4. G'.B.SHomurodov, I. O. Haydarov, N.A.So'inov, "Oila psixalogiyasi", Toshkent: "sharq" 2014.

